

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 2-noyabr, № 225 (8848) Shanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

IJTIMOIY-IQTISODIY VA MA’NAVIY-MA’RIFIY YUKSALISH YO‘LIDAGI EZGU TASHABBUSLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 31-oktabr – 1-noyabr kunlari yirik sanoat obyektlari va ishlab chiqarish korxonalari, ijtimoiy soha tashkilotlari bilan tanishish, yangi loyihalarga start berish maqsadida Navoiy viloyatida bo‘ldi.





Davlatimiz rahbarining Navoiy viloyatiga tashrifining ikkinchi kuni xayrli voqea bilan boshlandi. Jamoatchilik vakillari ishtirokida yangi loyihalarga bag‘ishlangan marosim bo‘lib o‘tdi.

Keyingi yillarda Navoiy viloyatida tadbirkorlik jadal rivojlanib, investorlarning hududga qiziqishi tobora ortmoqda. Birgina 2023-yilning o‘zida 101 trillion so‘mlikdan ziyod sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 648 million dollarlik eksport amalga oshirilgan. Shuningdek, qariyb 478 million dollarlik xorijiy investitsiya o‘zlashtirilib, viloyat tashqi savdo aylanmasi qariyb 1,3 milliard dollarni tashkil etdi. Viloyatda 300 dan ortiq chet el korxonalari ishlab turibdi. Endi ularning soni yanada ko‘payadi.

Marosimda 15 ta loyiha haqida e’lon qilindi.

Jumladan, Konimex tumanida yonuvchi slaneslarni qazib olish va qayta ishlashning birinchi bosqichi, Karmana tumanida 300 megavatt quyosh fotoelektr stansiyasi va 75 megavatt elektr energiyasini saqlash tizimi, Navoiy shahrida texnik gaz ishlab chiqarish, G‘ozg‘on shahrida marmar va Zarafshon shahrida granit toshlarni qayta ishlash, Uchquduq tumanida kaolin qazib olish va boyitish, Xatirchi tumanida baliq ozuqasi tayyorlash loyihalari qurilishi boshlandi.

Karmana tumanida kaliy sulfat va sulfat kislotasi, Navoiy shahrida paxta sellyulozasi, Nurota tumanida granit toshlarni qayta ishlash korxonalari ishga tushirildi.

Mazkur 15 ta loyihaning umumiy qiymati 3 milliard 600 million dollar. Ularning natijasida 7 mingdan ortiq ish o‘rinlari paydo bo‘ladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ramziy tugmani bosib, yangi loyihalarning qurilishi va faoliyatini boshlab berdi.

Shundan so‘ng Navbahor tumanida Navoiy viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash masalalari muhokamasi bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev so‘zining boshida yaqinda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog‘iston Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari Kengashlariga saylovlar demokratik tamoyillar asosida qizg‘in o‘tganini ta’kidlab, unda mas’uliyat bilan qatnashgan fuqarolarga minnatdorlik bildirdi.

Buyuk bobomiz nomi bilan ataladigan Navoiy viloyati ma’naviy tarbiya, ma’rifiy yuksalish yo‘lida barchaga o‘rnak bo‘lishi kerak. Shu ma’noda, davlatimiz rahbari yangi – 2025-yilni viloyatda “Alisher Navoiy yili” deb e’lon qilishni taklif etdi. Bu tashabbus doirasida respublika tanlovi va navoiyxonlik kechalari o‘tkaziladi, yoshlarbop kitoblar chop etiladi, shoir asarlari bo‘yicha filmlar tayyorlanadi. “Yangi Navoiy” shaharchasida muhtasham haykal va muzey barpo etiladi.

Iqtisodiyot haqida gap ketar ekan, ko‘rsatkichlar va rejalar atroflicha tahlil qilindi.

So‘nggi yetti yilda Navoiyda 8 milliard dollarlik 6,5 mingta loyiha ishga tushirilib, 27 trillion so‘mlik qo‘shilgan qiymat yaratilgan. Tadbirkorlar soni 3 karra ko‘paygan. Shu vaqt ichida viloyat iqtisodiyoti to‘qqizinchi o‘rindan uchinchi o‘ringa chiqib, 82 trillion so‘mga yetgan. Bu yil 2,2 milliard dollarlik 577 ta loyiha bajarilib, 10 mingta yuqori daromadli ish o‘rni paydo bo‘ladi.

Shu bilan birga, imkoniyatlar hali ko‘p. Navoiy viloyati mamlakatimiz markazida joylashgan boy tabiiy resurslar, yetarli infratuzilma va inson salohiyatiga ega hudud. Yurtimizdagi 5 trillion dollarlikdan ortiq qazilma boyliklarining 20 foizi Navoiy zaminida. Bu istalgancha investor talabini qondira oladi.

Viloyatda har yili 100 trillion so‘mlikdan ortiq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Jon boshiga daromad respublikada ikkinchi o‘rinda. Bular mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish, savdo, xizmatlar, umumiy ovqatlanish va turizmni kengaytirish uchun katta imkoniyat.

Hozirda viloyatda 11 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilyapti, yana 5,2 gigavattli shamol va quyosh stansiyalari ishga tushish arafasida. Bular – yangi sanoat va servis korxonalarining uzluksiz ishlashi kafolati.

Shu nuqtayi nazardan, viloyat hokimi, 11 ta shahar va tuman hokimlari, davlat tashkilotlari va banklar, 330 ta mahalladagi “yettilik” bu imkoniyatlardan qay darajada foydalana olyapti, deya savol qo‘yildi.

2025-yilda viloyatga 3,7 milliard dollar xorijiy investitsiya kiritilishi, natijada 600 ta yangi korxona ochilib, 15 mingta yuqori daromadli ish o‘rni yaratilishi rejalashtirilgan. Eng muhimi, bu loyihalar nafaqat Navoiy, balki atrofidagi viloyatlar sanoatini ham ergashtiradi.

“Yer qa’ri to‘g‘risida”gi yangi qonunga muvofiq endi yangi tizim bo‘ladi. Barcha strategik resursli konlar xalqaro baholashdan o‘tadi.

Navoiy viloyatida Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining hududiy boshqarmasi ochiladi. Endi litsenziya va ruxsatnoma berish, konlarni auksionga chiqarishni boshqarmaning o‘zi hal qiladi.

Viloyat hududidan Zarafshon daryosi va Oqdaryo o‘tgan. Yana 256 kilometr soy, 2 ming kilometrdan ziyod kanallar bor. Ularda kichik gidroelektrostansiyalar qurish bo‘yicha ko‘rsatma berildi. Buning uchun 10 million dollar ajratiladi, GESlar “sanoat ipotekasi” asosida tadbirkorlarga beriladi.

Kelgusi yilda Navoiyga 500 ming xorijiy turistni jalb qilib, bu xizmat eksportini 150 million dollarga yetkazish vazifasi qo‘yildi. Yo‘l bo‘ylarida yengil konstruksiyali shoxobchalar tashkil etib, savdo va servislarni ko‘paytirish imkoniyati ko‘rsatib o‘tildi.

Yig‘ilishda bandlik masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Viloyatda 16 ming kambag‘al oila, 8 mingdan ziyod ishsiz fuqarolar bor. Iqtisodiyot tarmoqlaridagi qo‘shimcha salohiyatdan foydalanib, ularni ish bilan ta’minlash mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi. Bandlik va ijtimoiy himoya tizimlari birgalikda bir yilda 16 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish maqsadi belgilandi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini zaxira qilib, bozorlarga kunlik yetkazib berish, ularning narxini barqarorlashtirish zarurligi qayd etildi.

Bunda qishloq xo‘jaligi muhim. Lekin Navoiyda bor-yo‘g‘i 100 ming gektarda ekin ekilyapti. Uning 72 foizi nasosda sug‘oriladi. 9 million gektar yaylov bo‘lsa-da, chorva kam.

Shu bois kelgusi yilda paxtachilikda Turkiya, Xitoy urug‘i va texnologiyasini olib kelib hosildorlikni 70 sentnerga chiqarish, 7 ming gektar bog‘ va tokzorlarni yangilash, hamma suvli yerlarni lazerli tekislab, takroriy ekin sifatida 10 ming gektarda kungaboqar yetishtirish choralari belgilandi. Yaylovlarga dron bilan ozuqa ekinlari, dorivor va ziravorlar urug‘lari sepilib, 50 ming aholiga bo‘lib beriladi. Umuman, uch yilda 3 million gektar yaylov yaxshilanib, chorva 10 karra ko‘paytiriladi.

Infratuzilma bilan bog‘liq masalalarga ham to‘xtalib o‘tildi.

Zarafshon shahrida aholi tez o‘sayotganini inobatga olib uning hududini Tomdi tumani hisobidan 2 ming gektarga kengaytirish va 150 ming aholi uchun sharoit yaratish zarurligi aytildi.

Zarafshon shahri, Uchquduq va Tomdi tumanlarida jami 200 ming aholi yashaydi. Xorijiy investorlar ham ko‘p kelyapti. Ularga qulaylik yaratish uchun Zarafshon shahridagi aeroportdan foydalanish, “Yangi Tomdi” qo‘rg‘oniga qo‘shimcha elektr tarmog‘i tortib tadbirkorlik loyihalarini ko‘paytirish mumkin.

Chekka hududlardagi 18 ta eski maktabni va ichimlik suvi tarmoqlarini yangilash, bog‘cha va maktablar qurish, aholi salomatligini mustahkamlash vazifalari belgilandi. Tadbirkorlik qilishga qiziqishi bor 9 ming xotin-qizni kasbga o‘qitib, bandligini ta’minlash mumkinligi aytildi.

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik va “Yashil makon” umummilliy harakatining bajarilish holati ham ko‘rib chiqildi.

Mutasaddilar, tumanlar va tarmoqlar rahbarlari joriy yil yakunida kutilayotgan natijalar, kelgusi yilga mo‘ljallangan rejalar bo‘yicha viloyat faollari va xalq oldida axborot berdi.

Yig‘ilishga videoselektor orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar ham ulandi. Ularning rahbarlari Navoiy viloyatida ko‘rsatib o‘tilgan yo‘nalishlarda o‘z hududida ham imkoniyatlar borligini tasdiqlab, bundan xulosa qilishi va natijadorlikni oshirishini aytdi. Xususan, sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, turizm va xizmat loyihalarini jadallashtirib, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, tadbirkorlik va kasbga yo‘naltirish orqali aholi bandligini ta’minlash choralarini bayon qildi. Yil yakunigacha va kelgusi yilga mo‘ljallangan rejalar belgilandi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Navoiy viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘zA muxbirlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ROSSIYA FEDERATSIYASI DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-noyabr kuni Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining o‘rinbosari Dmitriy Chernishenko boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Rossiya delegatsiyasi tarkibida uchrashuvda vazirlar Aleksey Chekunkov va Sergey Kravsov ham qatnashdi.

Oliy darajadagi kelishuvlarga muvofiq O‘zbekiston – Rossiya ko‘p qirrali munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Dmitriy Chernishenko davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin va Hukumat Raisi Mixail Mishustinning salomini yetkazdi.

Suhbat davomida ikki mamlakat o‘rtasidagi ta’lim va gumanitar almashinuvni kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, Rossiyaning yetakchi oliy ta’lim muassasalari faoliyati va O‘zbekistonda ularning yangi filiallarini ochish, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash masalalari muhokama qilindi.

Mamlakatimiz hududlarining Rossiyaning Uzoq Sharqdagi hududlari bilan amaliy hamkorligini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha qo‘shma “Yo‘l xaritasi”ni qabul qilish muhimligi ta’kidlandi.

Tomonlar o‘zaro sayyohlar oqimini ko‘paytirish, qo‘shma madaniy va sport tadbirlarini o‘tkazishdan manfaatdor ekanligi qayd etildi.

O‘zA.

YANGILANGAN SAYLOV TIZIMI YANGI SIYOSIY DAVRNI BOSHLAB BERDI

*Joriy yilning 27-oktabr kuni mamlakatimizda **Oliy Majlis Qonunchilik palatasi** va **mahalliy Kengashlar deputatligiga** saylovlar o‘tkazildi.*

*Mazkur saylovlarning ilk marta **aralash saylov tizimi** asosida o‘tkazilgani fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki bo‘yicha **yangi siyosiy davrni** boshlab berdi.*

Nuqtai nazar

Ushbu yangi tizim parlament va mahalliy Kengashlardagi har bir o‘rin uchun partiyalarning **siyosiy faolligini** yanada oshirib, jarayonlarning **kuchli raqobat asosida** o‘tishiga xizmat qildi.

Shu bilan bir qatorda, joriy yildagi saylovlar unda **zamonaviy siyosiy texnologiyalardan** keng foydalanilgani, jarayonlarni **raqamlashtirishga** katta e’tibor qaratilgani hamda ilk marta **elektron ovoz berish** tizimi joriy etilgani bilan siyosiy jarayonlarda **texnologik jihatdan oldinga katta siljish** bo‘lganini ko‘rsatdi.

Bu, o‘z navbatida, siyosiy partiyalar tomonidan faol ravishda olib borilgan **targ‘ibot-tashviqot tadbirlarida** ham yaqqol sezilib, **saylov natijalarida** ham namoyon bo‘ldi.

Zamonaviy siyosiy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi

Qayd etish kerakki, joriy yilning **22-sentabridan** boshlangan saylovoldi tashviqoti qariyb **34 kun** davom etdi. Siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan mazkur faoliyat o‘z dasturidagi g‘oya va tashabbuslar, **saylovoldi platformasi** to‘g‘risidagi axborotni saylovchilarga yetkazish uchun katta imkoniyat sanaladi.

Guvohi bo‘ldikki, saylovoldi tashviqotida aralash saylov tizimi imkoniyatlarini inobatga olgan holda barcha partiya va nomzodlar **“har bir ovoz hal qiluvchi”** ekanidan kelib chiqib harakat qildi. Joriy yildagi **yangilangan tizim asosida** o‘tkazilgan saylovlarda **nomzodlar borasida ham** siyosiy texnologiyalarni qo‘llagan partiya saylovchi ovozini olishda munosib natijaga erishdi.

Ya’ni nafaqat bir mandatli okruglarda, balki partiya ro‘yxati orqali o‘z a’zolari va tarafdorlari ichidan xalq tanigan **obro‘li shaxslar, hukumat** va **jamoatchilik vakillarini** nomzod sifatida ko‘rsatish ham siyosiy hokimiyat uchun kurashayotgan partiya uchun saylovda **o‘zini oqlagan siyosiy texnologiya** bo‘ldi.

Ta’kidlash kerakki, har bir **kichik ramzdan yirik texnologiyagacha** bo‘lgan tashviqot usullari yakuniy natijalarga bevosita ta’sir qildi. Masalan, O‘zLiDePning ovoz berishga chaqiruv, nomzodlarni tanitish, zaruriy axborotlarni saylovchiga yetkazish borasida keng qo‘llagan zamonaviy yondashuvlari partiya dasturidagi **hayotiy tashabbuslariga parallel ravishda** g‘alaba uchun xizmat qildi.

2

YANGILANGAN SAYLOV TIZIMI YANGI SIYOSIY DAVRNI BOSHLAB BERDI

1 Ekologik partiya **ramzi sifatida** daraxt, gul kabi saylovchi diqqatini tortadigan kichik jihatlargacha e’tibor qaratilgani esa **“yashillar”ga** xayrixoh bo‘lganlar safini kengaytirishga o‘ziga xos ravishda hissa qo‘shdi.

Shuningdek, MTDP dasturida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yuzasidan aniq takliflar emas, balki ko‘proq umumiy tusdagi **chaqiriqlar** ilgari surilgani saylovoldi tashviqotidagi **kontent sifatiga**, pirovardida esa partiyaning saylov yakunlari bo‘yicha umumiy natijasiga ta’sir qilmasdan qolmadi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda bu yilgi saylovlarda **siyosiy g‘oyalar qarama-qarshiligi** va **haqiqiy kurash maydoni** bo‘lgan debatlar, har bir xonadon, har bir saylovchigacha yetib borib, hududlarda tashkil etilgan **elektorat bilan uchrashuvlar**, o‘z tarafdorlari sonini oshirish va borlarini mustahkamlash yo‘lidagi **ommaviy tadbirlar**, saylovchi e’tiborini tortadigan **targ‘ibot usullari** muhim ahamiyat kasb etdi.

Noan’anaviy targ‘ibot usullari tashviqot jozibadorligini oshirdi

Joriy yildagi saylovoldi tashviqoti **texnologik** va **mazmunan** qator yangiliklarga, zamonaviy yondashuvlarga boy bo‘ldi. Nafaqat biz bilgan an’anaviy, balki ilk bor keng qo‘llanilgan **noan’anaviy** targ‘ibot usullariga ham guvoh bo‘ldik.

Umuman olganda, saylovoldi tashviqoti rivojlangan demokratik davlatlarda ham saylovchilarni o‘z ortidan ergashtirishga, partiya g‘oyalari ostida birlashishga, uni qo‘llab-quvvatlashga chaqiradigan eng muhim bosqich hisoblanib, bu saylov natijalariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Saylovoldi tashviqoti jarayonida partiya dasturini xalqchil va ommabop targ‘ib qilish uchun zarur kontent va zamonaviy usul hamda vositalarni qo‘llash maqsadida maxsus **politolog, imijmeyker** va **spichrayterlar** jalb etiladi.

Shundan kelib chiqib, joriy yildagi saylovlarda bu borada **katta siyosiy o‘sishning** guvohi bo‘ldik. Ayniqsa, **kimning aslida nimaga qodirligini** real ko‘rsatib beradigan, **haqiqiy bahs** va **siyosiy kurash maydoniga aylangan debatlar**, elektorat ovozi uchun kurash bo‘lgan ommaviy tadbirlar saylovoldi tashviqotida alohida ajralib turdi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatilgan, hududlarni ham qamrab olgan **20 dan ziyod debatlar**, butun respublika bo‘ylab tashkil etilgan **o‘nlab ommaviy tadbirlar**, millionlab saylovchilar auditoriyasini o‘z ichiga olgan **minglab uchrashuvlar** bu boradagi fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, debat va podkastlar, maqola



va postlarda bildirilgan keskin fikr va tanqidlar bo‘yicha **shakllangan xulosa** saylovlar kuni o‘z bahosini beruvchi saylovchilar e’tiboridan chetda qolmadi. Zero, g‘oyalar bahsiga aylangan siyosat maydonida qay bir partiya saylovchi ishonchiga sazovor bo‘lsa, natijalari ham yakunda muvaffaqiyatli bo‘ldi.

Yana bir muhim masala shuki, saylovoldi tashviqoti jarayonida asosiy harakatlanuvchi vosita bu – **zaruriy axborot**. Xo‘p, shunday ekan bugun odamlarimiz asosiy axborotni qayerdan oladi? Albatta, **ijtimoiy tarmoq** va **internet saytlaridan**.

E’tibor beradigan bo‘lsak, bugungi kunda **37 milliondan ortiq** aholimizning **30 milliondan ortig‘i** internetdan foydalanadi. Bu, albatta, juda yirik auditoriya.

Mazkur vaziyatni to‘g‘ri baholay olgan siyosiy partiya va nomzodlar saylovoldi tashviqotida **internet tarmog‘i imkoniyatlaridan** samarali foydalanishga ham katta e’tibor qaratdi. Bu borada mashhur ommabop sayt va platformalarda tashkil etilgan **debatlar, podkast** va **chiqishlar,** ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan **videorolik, info-post** va **maqolalar** saylovchilar e’tiboridan chetda qolmadi.

Shu bilan bir qatorda, saylovoldi tashviqotlarida **zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan** foydalanish holatlariga ham guvoh bo‘ldik. Xususan, tashviqot materiallarining **sun’iy intellekt** yordamida tayyorlanishi va tarqatilishi **zamonaviy saylovchilarni** befarq qoldirmadi.

Albatta, milliy qonunchilikda saylovoldi tashviqotini olib borishdagi **asosiy minimal kafolatlar** alohida belgilab qo‘yilgan. Xususan, tashviqot olib borilayotganida davlat ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda hajmiga ko‘ra **bir xil efir vaqti** va **nashr maydoni bepul** beriladi.

Lekin bugungi ochiq axborot makonida faqat **davlat OAV imkoniyatlari bilan cheklanish** kutilgan samara bermaydi. Shundan kelib chiqib, partiyalar **nodavlat ommaviy axborot vositalari** va qonunda taqiqlanmagan boshqa tashviqot usullaridan ham keng foydalandi.

Natijada siyosiy partiya tashviqotlari **ko‘proq auditoriyaga** kirib bordi, g‘oya va tashabbuslari **zamonaviy platformalarda** keng muhokama qilindi. Bu esa saylovchining ma’lum qarorga kelishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Bugungi saylovchi kechagi saylovchi emas!

Yangi O‘zbekistonda odamlarimizning siyosiy ongi, huquqiy bilim va madaniyati ancha o‘sgan. Bugun saylovchini **“quruq” va’da** yoki shunchaki targ‘ibot bilan jalb qilish yoki ovozini olish, ortidan ergashtirish juda qiyin. Jamiyatimizda o‘z kelajagi, xususan, bu boradagi **siyosiy pozitsiyasi** va **qarorini** bildira olish darajasi yildan-yilga oshib bormoqda. **Ochiq axborot siyosati, so‘z va matbuot erkinligi** bunga katta imkoniyat bermoqda.

Mazkur haqiqatni to‘g‘ri anglagan siyosiy partiya va nomzodlar mavjud reallikdan kelib chiqib, xalq manfaatlariga xizmat qiladigan **xalqchil tashabbuslarni** o‘rtaga tashladi, ularni targ‘ib qildi, tashviqotda ustuvorlik berdi. Nafaqat tashabbus, balki ularni **real amalga oshirish imkoniyati, huquqiy, tashkiliy va moliyaviy manbalarini** ham asoslab berish saylovchilar ovozini olishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ularning xalq tomonidan qanday qabul qilinganini esa saylov natijalari ko‘rsatib berdi.

Saylovoldi tashviqoti xalqaro kuzatuvchilar nigohida

Qayd etish kerakki, joriy yildagi saylovlarda **850 dan ortiq** xorijiy va xalqaro kuzatuvchilar, xususan, **Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti** hamda **Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilot**idan vakillar jarayonlarni kuzatib bordi.

Albatta, saylovga tayyorgarlik va uni o‘tkazish, shuningdek, saylovoldi tashviqoti va undagi zamonaviy texnologiyalar **xorijiy va xalqaro kuzatuvchilar** e’tiboridan chetda qolmadi.

YEXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi o‘z bayonotida “…saylovlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va saylov qonunchiligiga muvofiq tarzda, **shaffof, raqobat muhitida, ochiq** va **erkin** o‘tkazilganligini” alohida e’tirof etdi.

Shuningdek, qator xorijiy kuzatuvchilar mamlakatimiz fuqarolarining **siyosiy faolligi** oshganini, har bir partiya va deputatlikka nomzodlar faoliyati bilan tanishib, so‘ng o‘z **siyosiy qarorini** qabul qilganini, ochiqlik va so‘z erkinligi ta’minlanganini alohida qayd etib o‘tmoqda.

Bundan tashqari, saylovoldi tashviqotida **qonuniylik** va **tenglik prinsiplarini** qo‘llashga alohida e’tibor berilgani ham kuzatuvchilar e’tirofida bo‘ldi. Jumladan, saylov uchastkalarida nomzodlar haqidagi ma’lumotlar to‘liq berilgani, nomzodlar saylovoldi kampaniyasini **teng sharoitlarda olib borishlari uchun** barcha imkoniyat yaratilgani, bu borada davlat ommaviy axborot vositalari va ommaviy nashrlarda qonun hujjatlariga muvofiq **bepul efir vaqti va nashr uchun sahifa** ajratilgani alohida qayd etib o‘tildi.

Xalqaro va xorijiy kuzatuvchilar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar siyosiy jarayonlarda katta **demokratik qadamlar** tashlangani, mamlakatimizda **xalqaro saylov standartlari** samarali tatbiq etilayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa aniq: kim tashviqotda yutgan bo‘lsa, yakunda ham g‘alaba qozondi

2024-yilning 28-oktabr kuni Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovlarning dastlabki natijalariga ko‘ra **bir mandatli** saylov okrugi va **yagona saylov okrugi bo‘yicha** siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga mutanosib ravishda deputatlik o‘rinlari taqsimoti e’lon qilindi.

Natijalarga ko‘ra siyosiy partiyalarning deputatlik o‘rinlarini egallash ko‘rsatkichlarini oldingi parlament saylovi natijalari bilan solishtirganda sezilarli o‘zgarishlar bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Joriy natijalarning mazkur ko‘rinishi esa ko‘p jihatdan olib borilgan **saylovoldi tashviqoti** bilan ham bog‘liq.

Albatta, natijalar bu – har bir saylovchining ovozi yo‘lida qilingan **harakat**, faol ravishdagi **targ‘ibot va tashviqot**, partiya dasturidagi g‘oya va tashabbuslarning saylovchilar tomonidan **qo‘llab-quvvatlangani**, siyosiy partiya va deputatlikka **nomzodlar faoliyati** bilan bog‘liq.

Shu bois kim **munosib nomzodlarni** ilgari surgan, samarali faoliyati bilan xalqni **o‘z g‘oyalari atrofida** birlashtirgan, **har bir ovozni hal qiluvchi** deb hisoblab, hatto xorijdagi saylovchilar ovozi uchun ham kurashgan bo‘lsa, bugun saylovchilarning qo‘llab-quvvatlashi va yuksak ishonchiga erishib turibdi.

Mazkur ko‘rsatkichlarni amalga oshirishda esa **fundamental asos – siyosiy platforma** va **raqobat maydoni** bo‘lgan saylovoldi tashviqoti hisoblanadi.

Aralash saylov tizimi asosida ilk bor o‘tkazilgan saylovoldi tashviqoti bo‘yicha **to‘plangan tajriba** siyosiy partiyalarning keyingi parlament va mahalliy Kengashlarga o‘tkaziladigan saylovlarda **o‘z siyosiy platformasini targ‘ib qilish bo‘yicha strategiyani** shakllantirishga asos bo‘ladi.

Firuz MAHMUDOV,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Munosabat

KATTA MARRALAR HALI OLDINDA

Keyingi yillarda yurtimizning barcha hududi kabi Navoiy viloyatida ham tadbirkorlik jadal rivojlanib,investorlarning bu yerga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Bugun hududda 300 dan ortiq chet el korxonalari faoliyat olib borayotgani ham shundan dalolat. Muhimi,shu sa’y-harakatlar tufayli birgina 2023-yilning o‘zida 101 trillion so‘mlikdan ziyod sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib,648 million dollarlik eksport amalga oshirilgan.



Prezidentimizning mazkur viloyatga tashrifi davomida ma’lum qilinganidek, xorijiy va qo‘shma korxonalar soni yanada ko‘paymoqda. Ya’ni yangi loyihalarga start berish marosimida 15 ta loyiha e’lon qilindi. Ushbu loyihalarning umumiy qiymati 3 milliard 600 million dollardan iborat. Ular faoliyatini boshlagach 7 mingdan ziyod kishilar doimiy ish o‘rniga ega bo‘ladi.

E’tiborli jihati shundaki, Konimex tumanida yonuvchi slaneslarni qazib olish va qayta ishlashning birinchi bosqichi, Karmana tumanida quyosh fotoelektr stansiyasi va elektr energiyasini saqlash tizimi, Navoiy shahrida texnik gaz ishlab chiqarish, G‘ozg‘on shahrida marmar va Zarafshon shahrida granit toshlarni qayta ishlash, Uchquduq tumanida kaolin qazib olish va boyitish, Xatirchi tumanida baliq ozuqasi tayyorlash loyihalari qurilishi boshlab yuborildi.

Davlatimiz rahbari ramziy tugmani bosib, yangi loyihalar qurilishi va faoliyatini boshlab berdi.

Ta’kidlash kerakki, ushbu loyihalar birgina Navoiy viloyati uchun emas, balki butun mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, o‘z navbatida, aholi turmush darajasini oshirish imkonini beradi. Zero, yurtimizda olib borilayotgan islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad ham odamlarning kundan-kun yaxshiroq va baxtliroq yashashlari uchun sharoit yaratishdan iborat.

Kezi kelganda vazifamiz taqozosi bilan xorijlik hamkasblarimiz, yaqin qo‘shni davlatlardagi qardoshlarimiz bilan muloqotlar qilganimizda ular O‘zbekiston har tomonlama jadal rivojlanayotgan mamlakatlardan ekanini bot-bot tilga olishini eslatib o‘tmoqchimiz. Bu e’tiroflar bejiz emas. Axir har jabhada yangilanish va taraqqiyot kuzatilmoqda.

Prezidentimizning Navoiy viloyatiga tashrifi chog‘ida barchamiz guvoh bo‘lgan yangilanishlar buning hayotiy tasdig‘idir.

Tolibjon MADUMAROV,
Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari.

HAYOTIY MUAMMOLARGA YECHIM BOR

Biz uzoq yillar Navoiy viloyati imkoniyati deganda konchilik va kimyo korxonalarini ko‘z oldimizga keltirib yurgan ekanmiz. Hududimizda mehnatga layoqatli kishi borki,shu korxonalarga intilgan.



Davlatimiz rahbari tarixan qisqa davrda hududning imkoniyat va salohiyatlarini namoyon qilibgina qolmay, ularni ro‘yobga chiqarish yo‘lida qator samarali tadbirlarga bosh-qosh bo‘ldi. Natijada hudud aholisining yillar mobaynida to‘planib qolgan ijtimoiy muammolari bartaraf etilib, farovonlikni belgilovchi hayotiy masalalar o‘z yechimini topdi.

Bir misol: 2017-yil boshida viloyatimiz aholisining 67 foizigina toza ichimlik suvi bilan ta’minlangan edi. Bugun bu ko‘rsatkich 85 foizni tashkil qiladi. Salkam oltmish yil xalqimiz sog‘ligiga tahdid solib, boshiga zahar-zaqqum to‘kib kelgan kimyo korxonasining ikki sexi ishlab chiqarishdan olinib, o‘rniga eng zamonaviy texnologiyalarga asoslangan turdosh quvvatlar bunyod etildi. Eng muhimi, ushbu tadbirlar ishlab chiqarish, ishchi o‘rinlari qisqarmagan holda eng tejamkor texnologiyalarni jalb qilish orqali amalga oshirildi.

Prezidentimiz bu galgi tashrifida viloyatimizda 15 ta yirik loyihaning ishga tushirilishi va qurilishi boshlanishiga start berdi. Ushbu loyihalar tufayli qariyb yetti ming kishi yuqori haq to‘lanadigan o‘z ish joylariga ega bo‘ladi. Shuningdek, kelgusi yilda viloyatimizga 3,7 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb etish vazifalari belgilanib, shu asosda 600 ta korxonani ishga tushirish, 20 mingta ish o‘rni yaratish topshiriqlarini berdi. Bu hududda ishga solinmagan imkoniyat va resurslardan foydalanish kambag‘allikni qisqartirish va farovonlikni oshirishning muhim omili bo‘ladi.

Normurod ISOQOV,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyati kengashi raisi o‘rinbosari.

JUR’AT BO‘LSA, IMKON TOPILADI

Tadbirkorlikni boshlagan paytimda oilamiz bilan hali ijarada yashardik. Ikki nafar farzandim yoshligi sabab ishlay olmasdim, turmush o‘rtog‘im ishsiz edi. Tirikchilik uchun har kuni besh-olti kilogramm undan xamir qorib non pishirardim. Kechga yaqin shularni uyma-uy sotib,puliga yana un oldirib qo‘yardim. Shu tariqa ikki yil o‘tdi. Nihoyat,pulimiz biroz ko‘paygach turli pishiriqlar,chuchvara tayyorlash,do‘konlarga topshirishni yo‘lga qo‘ydik. Biznesimiz kengaydi.



Bugun korxonamizda har kuni olti tonna undan 360 turdagi mahsulot tayyorlab bozorga chiqaramiz. Navbahor tumanining o‘zida 200 nafar ayolni ish bilan ta’minlaganmiz. Shularning yetmish nafarini kambag‘allik darajasidagi oilalarning ayollari tashkil etadi. Shularning duosi ishimizning barakasini berdi. Bugun Toshkentning o‘zida ikkita uyimiz, ikkita eng zamonaviy mashinamiz bor. Turmush tashvishlari bilan bo‘lib o‘qiy olmay qoldim, deb o‘ksinardim. Mana, endi qirq yoshga kirib kelgusi yil qo‘limga oliygoh diplomini olaman.

Mamlakatimiz Prezidenti biz, navoiylik faollar bilan uchrashuvda mutasaddilarga hududlarda kambag‘allikni qisqartirish, xonadonma-xonadon yurib, farovon yashash uchun odamlarga sharoit yaratish bo‘yicha topshiriqlar berdi. Bu boradagi ishlar yuzasidan hisobot so‘radi. Ularning faoliyatiga kambag‘allik darajasidagi oilalar soni kamayishiga qarab baho berishini ta’kidladi. Ushbu so‘zlarni eshitib, faqirlik yukini yelkadan uloqtirib, farovonlik sari intiladigan damlar yetdi-ku, degim keldi. Bunday sharoit va rag‘bat har qanday jamiyatda ham yaratilmagan.

Kambag‘allik va farovonlikka kelsak, ularning orasi atigi bir qadam ekanini o‘z hayotimda sinovdan o‘tkazdim. O‘sha qadamni bosish uchun jur’at kerak.

Shahnoza KARIMOVA,
«Baraka non Navoiy» MCHJ rahbari.

Joriy yil 1-noyabrdan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini “Kambag‘al oilalar uchun y ettita imkoniyat va mas’uliyat” tamoyili asosida amalga oshirish boshlandi.

Anjuman

QUTLUG‘ SANA KENG NISHONLANDI

Olmaliq shahridagi “Metallurg” madaniyat saroyida “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tashkil topganining 75 yilligi munosabati bilan bayram tadbiri o‘tkazildi.



Unda Prezidentimizning kombinat jamoasiga yo‘llagan bayram tabrigini Bosh vazir Abdulla Aripov o‘qib eshittirdi.

Yubiley sanasi munosabati bilan ishlab chiqarishning bir guruh ilg‘orlari davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo‘lgan edi. Tantanali tadbirda ana shu mukofotlarni Bosh vazir o‘z egalariga topshirdi. Taqdirlangan konchi va metallurglar yuksak e’tibor uchun o‘z minnatdorligini bildirdi.

Prezidentimiz tabrigida ta’kidlanganidek, bugungi kunda “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida yiliga 60 million tonna ma’danni qayta ishlaydigan 3-mis boyitish fabrikasi qurilishi yakuniga yetkazilmoqda. Ana shunday quvvatga ega bo‘ladigan 4-mis boyitish fabrikasi qurilishi boshlangani ham e’tiborga loyiq. Ushbu fabrikalar ishga tushishi bilan kombinat bo‘yicha yiliga 160 million tonna xomashyoni qayta ishlash imkoni paydo bo‘ladi. Aytish kerakki, bu O‘zbekiston sanoati tarixidagi mislsiz natijadir.

Eng quvonarli jihati shundaki, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati mis ishlab chiqarish sohasida dunyodagi o‘ttizta eng yirik majmua qatoridan munosib o‘rin egallab kelmoqda. Bu esa jamoaning o‘z vazifasini sidqidildan ado etib, korxonada zamonaviy texnologiyalar keng qo‘llanilayotgani, modernizatsiya va innovatsiya yaxshi yo‘lga qo‘yilganining amaliy samarasidir. Binobarin, “Qalmoqqir”, “Angren”, “Chodak”, “Xonjiza” maydonlari hamda yangi ochilgan “shlik – 1” konida xomashyoni chuqur qayta ishlaydigan 6 ta korxona va 5 ta boyitish fabrikasi, mis eritish hamda rux zavodlari, shuningdek, qator ishlab chiqarish infratuzilmalari barpo etilganini keltirib o‘tish mumkin.

– Bugun konchilar hayotida eng quvonchli kun, – deydi “Olmaliq KMK” AJ mis boyitish fabrikasi direktori Ravshan Siddiqov. – 75 yillik shonli yo‘lni bosib o‘tgan kombinat bugun sanoatning drayver sohalarini rivojlantirishda yetakchilik mavqeini egallab kelmoqda. Shu jihatdan davlatimiz rahbarining bayram munosabati bilan konchi va metallurglarga yo‘llagan tabrigi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining eng yirik boyitish korxonasi hisoblangan mis boyitish fabrikasi mehnat jamoasini ham yangi marralar sari ruhlantiradi. Biz kelgusi yilda 40,3 million tonna ma’danni qayta ishlashdek ulkan marrani zabt etishni o‘z oldimizga ustuvor maqsad sifatida belgilab oldik.

Anjuman so‘ngida san’at ustalari tomonidan ijro qilingan dilrabo kuy-qo‘shiq va raqslar bayram ishtirokchilari qalbiga yanada ko‘tarinkilik baxsh etdi.

“Xalq so‘zi”.

Iftixor

Mahmud TOIR,
O‘zbekiston xalq shoiri.

O‘ZBEK DURI

Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining 75 yilligiga

Shirin orzulardan boshlanar hayot,
Baxt uchun tug‘ilar chunki odamzot,
Valekin mehnatda, bilimda najot,
Azaldan haloldir har burda noni,
Axir, bu o‘zbekning O‘zbekistoni!

Xudo nazar qilgan shu qutlug‘ Vatan,
Har qarich yerida xazina, ma’dan,
Uni qazib olar ming shukur bilan,
Bu oltin, bu kumush, yangi mis koni,
Yangi O‘zbekiston – ulug‘ imkoni.

Bahor bog‘laridan kelgandek payg‘om,
“shlik-1” deb unga qo‘yilmishdir nom,
Ne-ne shoirlarga bag‘ishlar ilhom,
Olamga taralar Olmaliq shoni,
Rang-barang, bebaho ma’danlar koni!

“Qalmoqqir”, “shlik-1” – birlikda o‘zdi,
“Uchinchi” qad rostlab, ko‘kka bo‘y cho‘zdi,
Rahnamo “4”ga ham tamaltosh qo‘ydi,
“Buyuk Ipak yo‘li”n yangi karvoni,
O‘zbek duri bilan olar jahonni!

Yetmish besh yoshdadir bu qutlug‘ dargoh,
Porloq istiqbolin qo‘llasin Alloh!
Oltini mo‘l elning ko‘ksi abad tog‘,
Qarsak qarsillatib qutlang bu onni,
Olmaliq – el-yurtning boylik bo‘stoni!

E’zozu ehtirom, baxtning visoli.
Mukofot olganga bo‘lsin haloli,
Prezident tabrigi – quvonch timsoli,
Oltinning ortida kumush karvoni,
Olmaliq og‘ushi – misning makoni!

Yurtboshi g‘oyasi – oltin g‘oyadir,
Buyuk kelajakka pillapoyadir,
Bu millat gul yuzin nurga chayadir,
Har kimga buyursin o‘zining shoni,
Bu bizning, o‘zbekning – O‘zbekistoni!

O‘ZBEKISTON QAHRAMONI AHMAD NARZULLAYEV



Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasi og‘ir judolikka uchradi. Butun hayoti va mehnat faoliyatini qishloq xo‘jaligi rivojiga bag‘ishlagan taniqli fermer, O‘zbekiston Qahramoni Ahmad Narzullayev shu yil 1-noyabr kuni 68 yoshida vafot etdi.

A. Narzullayev 1956-yili Denov tumanida tug‘ildi. Mehnat faoliyatini tumandagi “Surxon-oziqovqatsanoati” aksiyadorlik jamiyatida boshladi. Keyinchalik Toshkent politexnika institutini tamomlab, “Sharg‘un” g‘isht zavodida, Denov tumanidagi 37-mexanizatsiyalashgan ko‘chma kolonna va eksperimental ishlab chiqarish birlashmasida turli vazifalarda ishladi. 1991-yildan “Lochin” fermer xo‘jaligi rahbari sifatida fidokorona mehnat qildi.

A. Narzullayev 50 yildan ziyod davom etgan ish faoliyati mobaynida boy bilim va hayotiy tajribasini, kuch-g‘ayratini el-yurt ishiga bag‘ishladi. O‘zini yer ilmining haqiqiy bilimdoni, zamonaviy agrotexnologiyalar va xo‘jalik yuritish usullarini puxta egallagan tashkilotchi rahbar, mehnatsevar, kamtarin va vatanparvar inson sifatida namoyon etib, respublikamizda qishloq xo‘jaligi sohasidagi keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish, fermerlik harakatini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shdi.

U ko‘p yillar Surxondaryo viloyati va Denov tumani xalq deputatlari Kengashlarining a’zosi sifatida ushbu hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuksaltirish, aholining turmush sharoitini yaxshilash, ta’lim, tibbiyot, madaniyat maskanlari qurish va obod qilish, yangi bog‘ va xiyobonlar barpo etish, yoshlarni ona yurtga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatdi.

Tajribali fermer o‘nlab iqtidorli shogirdlar tayyorlab, qishloq xo‘jaligi sohasini malakali kadrlar bilan ta’minlash borasida ham ibrat namunasini ko‘rsatdi.

Ahmad Narzullayevning ko‘p yillik samarali mehnati davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni va “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlangan edi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasining yetuk namoyandasi, mehribon ustoz, samimiy va kamtarin inson Ahmad Narzullayevning yorqin xotirasi qalbimizda hamisha saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, S. TURDIYEV, U. QOSIMOV

Biz va jahon

Tokio shahridagi Yaponiya milliy matbuot markazida “Yengilmas, Tokioga yo‘l” filmiga bag‘ishlangan matbuot anjumani tashkil etildi. Unda O‘zbekistondan kinofilm prototipi – yozgi Olimpiya o‘yinlari chempioni Bahodir Jalolov va uning oila a’zolari, rejissyor Akrom Isakov hamda prodyuserlar, aktyorlar ishtirok etdi.

O‘zbek va yapon kinoijodkorlaridan tuhfa:

“Yengilmas, Tokioga yo‘l”



O‘zbekiston elchisi Muhsinxo‘ja Abdurahmonov tadbirdagi nutqida ilk marotaba o‘zbek – yapon kinoijodkorlari tomonidan suratga olingan “Yengilmas, Tokioga yo‘l” filmi tarixiy voqea bo‘lganini ta’kidlab, ushbu madaniy loyiha ikki davlat aloqalari rivojiga munosib hissa qo‘shishiga ishonch bildirdi.

Shuningdek, yurtimizda davlatimiz rahbari tomonidan sportga berilayotgan e’tibor, yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar o‘z natijasini berayotgani, buning yorqin misoli sifatida yurtimiz sportchilarining “Parij – 2024” yozgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlaridagi muvaffaqiyatlari qayd etildi. Qolaversa, mazkur kinofilm Yaponiyada O‘zbekistonning ijobiy imijini yanada oshirishga, xususan, o‘lkamizga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimini ko‘paytirishga xizmat qilishiga umid bildirdi.

Matbuot anjumanida film ijodkorlari ushbu loyiha haqidagi fikrlari bilan o‘rtoqlashdi va OAV vakillari savollariga javob berishdi.

– Davlatimiz rahbari, O‘zbekiston xalqi va oila a’zolarimning doimiy qo‘llab-quvvatlovi orqali mana shunday yuqori natijalarga erishdim, – dedi Bahodir Jalolov. – Mazkur film yapon kinoijodkorlari bilan hamkorlikda tasvirga olinganidan bag‘oyat mamnunman. Chunki men uchun qadrli shaharlar – Tokio va Parijda Olimpiya chempioni bo‘lishdek ezgu orzularim ro‘yobga chiqqan. Mazkur film yurtimiz yoshlarining sportga qiziqishi ortishi, kelajakka katta umid va ishonch bilan qarab, hamisha sabr-matonat va mashaqqat bilan o‘z maqsadiga erishishiga kuch berishiga ishonaman.

Kartina bosh rejissyori Akrom Isakov filmni tasvirga olish jarayonlari haqidagi fikrlarini bildirib o‘tdi.

– Birinchi marotaba yapon kinoijodkorlari bilan hamkorlikda ishlaganimdan mamnunman. Film “Yengilmas, Tokioga yo‘l” deb nomlangani bejiz emas, mazkur loyiha ikki davlat do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlovchi o‘ziga xos “ko‘prik” bo‘lishiga ishonaman, – dedi u. – Film ustida professional jamoa ishladi, ko‘plab taniqli aktyorlar qatnashdi va Yaponiya, AQSH, Turkiya kabi davlatlarda tasvirga olish ishlari amalga oshirildi. Kino chinakam xalqaro darajadagi loyiha bo‘ldi, desak, mubolag‘a emas.

– Yaponiyada ushbu filmga qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda, – dedi prodyuser Masuda Yuko. – Uning premyerasi 8-noyabr kuni Tokioda, 10-noyabr kuni esa Nagoya va Gifu shaharlarida o‘tkaziladi. Keyinchalik mamlakatning barcha mintaqasidagi kinoteatrlarda ko‘rsatiladi. Biz faqat Yaponiya bilan cheklanib qolmaymiz, keyinchalik Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ham mazkur filmni targ‘ib qilish bo‘yicha kelishuvga erishganmiz. To‘g‘risini aytsam, menga ushbu film katta tajriba va yangi imkoniyat eshiklarini ochdi. Men O‘zbekiston bilan bog‘liq yana bir film tasvirga olishni o‘ylayapman.

– Bunday qo‘shma loyihada qatnashish men uchun katta baxt. To‘g‘risi, tasvirga olish jarayonida chinakamiga rohatlandim, – deydi yaponiyalik aktyor Kato Masaya. – Loyiha o‘zbek – yapon ijodkorlari tomonidan keyingi qo‘shma kinofilmlarni tasvirga olishga turtki beradi deb umid qilaman. O‘zbekiston tabiati va me’morchiligi bilan dunyoga tanilgan, odamlari juda mehmondo‘st. Hamkorligimiz davom etishini istar edim.

– 2023-yilda Toshkent xalqaro kinofestivalida qatnashish uchun O‘zbekistonga borganman, – dedi yaponiyalik aktyorlardan yana biri Yamamoto Osamu. – Mamlakatingiz betakror, xalqingiz juda ham samimiy, yosh kinoijodkorlar ko‘zidagi shijoatni ko‘rib hayron qolganman. Ushbu kinofilmda O‘zbekistonning tabiati va tarixiy obidalari hamda milliy qadriyatlari ham tasvirlangan bo‘lib, barchaning qalbidan o‘rin oladi, deb ishonaman. Men O‘zbekiston bilan bog‘liq yana ko‘plab kinoloyihalarda ishtirok etishga tayyorman.

“Dunyo” AA.
Tokio

Autsorsing xizmatlari ko‘rsatuvchi xalqaro Call-markaz ish boshladi



Farg‘ona viloyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish hamda IT xizmatlari eksportini kengaytirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buning samarasi o‘laroq hozir viloyatda yuzdan ziyod IT-park rezidentlari faoliyat ko‘rsatayotir. Bu sohada xizmatlarni eksport qiluvchi korxonalar soni 20 taga yetdi.

Qulaylik

Farg‘ona shahrida Rossiyadagi Call-markaz autsorsingi xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashtirilgan “Audiotele” kompaniyasi markazi tashkil etilgani ushbu sohadagi istiqbolli loyihalar sirasiga kiradi.

Ushbu markazda 60 nafar yosh mutaxassis ish boshladi. Joriy yil yakuniga qadar ular sonini 110 nafarga yetkazish, shu tariqa 4 million dollar hajmida xizmatlar eksportini amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Ma’lumot uchun, “Audiotele” kompaniyasi Rossiyaning qator shaharlarida o‘z markazlariga ega. Kompaniyada 4 ming nafardan ziyod xodimlar faoliyat olib boradi.

Kinologlar uchun foydali seminar

Milliy kinologiya markazida “Fauna & Flora International” xalqaro tashkilotining bojxona xizmatlari kinolog xodimlari uchun “vvoyi tabiatga qarshi jinoyatlarning oldini olish maqsadida xizmat itlarini tayyorlashda salohiyatni oshirish” mavzuida Markaziy Osiyo mintaqaviy seminari tashkil etildi.

Tadbir

Bojxona qo‘mitasi, xalqaro ekologiya tashkilotlari, Qozog‘iston va Qirg‘iziston kinologiya xizmatlari vakillari hamda boshqa tegishli mutasaddilar qatnashgan ushbu tadbirda mintaqada so‘nggi o‘n yil ichida yovvoyi tabiatga qarshi sodir etilgan jinoyatlar va ularning salbiy oqibatlari, noqonuniy va qonuniy savdo tendensiyalari haqida batafsil ma’lumotlar berildi.

Tomonlar bu borada hamkorlikdagi ishlarni kuchaytirish va qilinishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab olishdi.

“Xalq so‘zi”.

INSON HUQUQLARINI TA’MINLASHDA QIYNOQ HOLATLARIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Qiynoqlar jahon ommasi uchun eng global masalalardan hisoblanib, inson huquqlari bo‘yicha ko‘plab xalqaro hujjatlar ishlab chiqilganiga qaramay hamon bu masala dunyo hamjamiyati diqqat e’tiboridan tushmayapti.

BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 5-moddasida ham hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo‘rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerakligi belgilangan.

“Amnesty International” xalqaro tashkilotining 2024-yilning aprel oyida e’lon qilgan hisobotida 2023-yilda inson huquqlarining buzilishi bilan bog‘liq muammolar, jumladan, qiynoqlar va odamlarga nisbatan shafqatsiz muomala turlari jahonning 155 ta mamlakatida kuzatilgani qayd etilgan.

Tahlil

Qiynoqlardan himoya har qanday holatda bajarilishi kerak bo‘lgan asosiy inson huquqlaridan biri ekanligi sababli O‘zbekiston unga qo‘shilgan va qiynoqlarga qarshi murosasiz kurash yo‘lini tanlagan.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligi hamda hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emasligi belgilangan.

Shuningdek, qiynoq holatlarining oldini olishga oid yangi normalar kiritilib, avvalgi tahrir takomillashtirildi. Unga ko‘ra, agar shaxsning o‘z aybini tan olgani unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi oliy yuridik maqomga ega bo‘lgan hujjatda qat’iy belgilandi. Bu esa qiynoq holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan muhim qadam.

Qolaversa, shaxsni hibsga va qamoqqa olishga, qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yilishi, shuningdek, shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi Konstitutsiya darajasida belgilab qo‘yildi.

Hozirga qadar O‘zbekiston inson huquqlari sohasida 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan, BMTning 7 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan.

O‘zbekistonning zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarini bajarishi, xususan, qiynoqqa qarshi kurash borasida o‘z tajribasi va bosib o‘tgan yo‘li bor.

Qayd etish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 235-moddasi bilan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan va qiynoqni qo‘llaganlarga nisbatan jazo choralari og‘irlashtirilgan.

Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga qiynoqqa solishdan jabrlanganlarga yetkazilgan zararni qoplash tartibini takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunda qiynoqqa solishdan jabrlangan shaxslarga yetkazilgan jismoniy, ruhiy, ma’naviy va moddiy zarar yoki boy berilgan foyda, yuridik yordam, dori vositalari va tibbiy xizmat, psixologik va ijtimoiy xizmatlar uchun qilingan xarajatlar to‘lab berilishi nazarda tutilgan.

Shu o‘rinda inson huquqlari sohasida, xususan, qiynoq holatlarini bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan muhim islohotlarga to‘xtalib o‘tish joiz.

Harakatlar strategiyasi doirasida 2019-yilda Ombudsman huzurida qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarining oldini olish bo‘yicha milliy preventiv mexanizm hayotga tatbiq etildi. Shundan so‘ng harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalarga Ombudsman va jamoatchilik vakillarining muntazam ravishda kirishi va u yerda saqlanayotgan shaxslarning sharoitlarini o‘rganishi, ular bilan muloqot qilishi yo‘lga qo‘yildi.

Bilamizki, ko‘plab xalqaro tashkilotlar tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida joylashgan “Jasliq” Markaziy Osiyoning eng mudhish qamoqxonasi sifatida tilga olinib kelingandi. U uzoq yillar O‘zbekistonning xalqaro obro‘siga putur yetkazgan. BMTning Qiynoqlarga qarshi qo‘mitasi “Jasliq” qamoqxonasini yopishni tavsiya etib kelgan. Prezidentimizning 2019-yil 2-avgustdagi qarori bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasining Jasliq qo‘rg‘onida joylashgan 19-son ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasi tugatildi. O‘sha paytdanoq xalqaro hamjamiyat mamlakatimiz yetakchisining mazkur qarorini O‘zbekistonda inson huquqlarini ta’minlashdagi ijobiy yangilik sifatida baholadi.

Ahamiyatlisi, bu boradagi ishlar shuning o‘zi bilan kifoyalanmadi. Ya’ni bu O‘zbekistonning qiynoq holatlarining oldini olish sari tashlagan dastlabki qadamlaridan biri edi. Inson huquqlarini himoya qilish uzluksiz davom etadigan jarayon ekanligi nuqtayi nazaridan mamlakatimizda qiynoqqa qarshi kurashish mexanizmlari ham takomillashtirilib borildi.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2021-yil 26-iyundagi “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori nafaqat ushbu illatni barvaqt aniqlash, bartaraf etish, balki qiynoqdan jabr ko‘rgan insonlarga har tomonlama yordam berish va ularga yetkazilgan zararni kompensatsiya qilishga ham qaratildi.

Shuningdek, qaror bilan Ombudsman huzuridagi Milliy preventiv mexanizm (MPM) ham takomillashtirilib, ekspert guruhi negizida Ombudsman huzuridagi Qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlari tashkil qilindi. Ular zimmasiga qiynoqqa solish holatlarini aniqlash hamda ularni tezkor bartaraf etish bo‘yicha talabnomalarni tegishli davlat organiga taqdim qilish, qiynoqqa solish holatlari to‘g‘risidagi murojaatlarni ko‘rib chiqishda ishtirok etish kabi vazifalar yuklatildi.

Raqamlarga nazar solsak, 2021-yilda 177 marotaba, 2022-yilda 381 marotaba monitoring tashrifi amalga oshirilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 603 tani tashkil etdi. Natijada qiynoqqa solish holatlarining oldini olish bo‘yicha parlament va jamoatchilik nazorati o‘rnatilishiga erishildi. Monitoring tashriflari davomida aniqlanayotgan kamchiliklar yuzasidan tahliliy ma’lumot va axborotlar, xulosa va taqdimnomalar hamda talabnomalar tayyorlanib, mutasaddi vazirlik va idoralarga ko‘rib chiqish uchun yuborilmoqda. Bundan tashqari, ushbu monitoring natijalari Ombudsmanning Oliy Majlis palatalariga taqdim qiladigan yillik axborotida ham aks etadi.

Shuningdek, harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalarga Bolalar ombudsmani, Biznes ombudsman hamda Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazning ham moneliksiz kirishlari belgilangan.

Ombudsman tomonidan jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikdagi o‘rganishlar asosida 2023-yilda BMTning tegishli qo‘mitasiga Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llashga qarshi konvensiyaning bajarilishi bo‘yicha O‘zbekiston hukumati hisobotiga muqobil ma’ruza kiritildi. Ushbu ma’ruza qator nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan hamkorlikda ishlandi.

Ta’kidlash lozimki, qiynoq holatlarini aniqlash va bartaraf etish maqsadida Ombudsman boshchiligida amalga oshirilgan monitoring tashriflari natijasida yildan-yilga harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalardagi sharoitlar, mahkum va mahbuslarga bo‘lgan munosabat xalqaro me’yorlarga muvofiqlashtirildi. Ushbu penitensiar muassasalarga o‘rnatilgan “Ombudsman quti”lari orqali mahkum va mahbuslarning Ombudsmanga murojaat qilish imkoniyati yaratildi. Ularning murojaatlari maxfiyligi saqlangan holda hech qanday to‘siq va ovoragarchiliksiz Ombudsmanga yetkazilib, ularni hal etish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilmoqda. Aytish lozimki, mahkumlarni Ombudsmanga “Ombudsman qutisi” orqali murojaat qilish huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksida belgilangan.

Davlatimiz rahbarining yuqorida tilga olingan qiynoqlarning oldini olishga qaratilgan qarorida ushbu illatga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilandi. Harakatlanish erkinligi cheklangan joylarga joylashtirilgan shaxslarning yagona elektron reestrini yuritish amaliyotining joriy etilishi shular jumlasidandir.

Ushbu mexanizm tegishli organ va idoralar xodimlariga harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalarda saqlanayotgan shaxslar haqidagi ma’lumotlar, jumladan, qachon olib kelingani, sababi, tibbiy holati va boshqa faktlarni tezkorlik bilan elektron reestrga kiritish majburiyatini yuklaydi. Bu esa biror-bir shaxsni besabab ushlab turish, ma’lumotlarni yashirish, jismoniy kuch ishlatish yo‘li bilan ko‘rsatma olishga urinish kabi salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ushbu elektron reestr ma’lumotlari bilan onlayn tanishish imkoniyati Ombudsman, sudlar va prokuratura organlariga ham berilayotgani ochiqlikni ta’minlash bilan birga mas’uliyat va nazoratning ham yanada kuchaytirilishini ta’minlaydi.



Shunday qilib, jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlangan, ma’muriy qamoqqa olingan, muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olingan, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilib, psixiatriya statsionarlarida yoki narkologiya muassasalarida majburiy davolanayotgan shaxslar haqidagi ma’lumotlarni Yagona elektron reestrga majburiy ravishda kiritib borish tartibi belgilangan.

Yangi tartiblarga ko‘ra harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan muassasalarga olib kelingan shaxs haqidagi ma’lumotlarni belgilangan muddatda Yagona elektron reestrda ro‘yxatga kiritmaslik ushbu shaxslarni noqonuniy ushlab turishga tenglashtiriladi va qonunchilikda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Qamoqda saqlanayotgan shaxslarga nisbatan zo‘ravonlik, qiynoqqa solish va noqonuniy harakatlarni o‘z vaqtida aniqlash maqsadida jazoni ijro etish tizimi faoliyatiga raqamli texnologiyalarni, jumladan, intellektual “Smart” kameralar, videoregistrator, rentgen-skaner qurilmasi, elektron do‘konlar joriy etish, onlayn videouchrashuv xizmatini yo‘lga qo‘yish borasida ham qator ishlar amalga oshirildi. Albatta, tizim faoliyatining raqamlashtirilishi jazoni ijro etish muassasalarida ishlovchi xodimlar ishini yengillashtirishi bilan birga ularning mas’uliyatini ham oshiradi.

Pirovardida, qiynoq holatlarining oldini olish orqali inson huquqlari ta’minlanishiga zamin yaratiladi.

Ushbu maqolada qiynoqqa qarshi kurash borasidagi eng asosiy amalga oshirilgan ishlargina qamrab olindi. Harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalarda saqlanayotgan shaxslarning qonuniy huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilgan samarali islohotlar esa alohida mavzu. Qisqacha aytganda, harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalardagi hozirgi sharoitlarni bundan 7-8 yil avvalgisi bilan solishtiradigan bo‘lsak, juda katta o‘zgarishlarga guvoh bo‘lamiz. Ushbu o‘zgarishlar, albatta, tizimdagi islohotlar va jamoatchilik nazoratining o‘rnatilgani mevasidir.

O‘zbekistonda inson huquqlarini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar samarasini xalqaro reytinglarda ham ko‘rishimiz mumkin. “World Justice Project” xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan tuziladigan 2024-yilda e’lon qilingan Huquq ustuvorligi indeksida O‘zbekiston Serbiya, Albaniya, Xitoy, Belarus, Qirg‘iziston, Rossiya, Turkiya va boshqa davlatlarni ortda qoldirib, 140 ta davlat orasida 78-o‘rinni egalladi. Unda O‘zbekistonning barcha 8 ta indikator bo‘yicha ko‘rsatkichlarida yaxshilanish kuzatilgan.

Qolaversa, 2024-yilning iyun oyida mamlakatimizga tashrif buyurgan BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish O‘zbekiston Prezidenti bilan uchrashuvda mamlakatimizga ilk bor 20 yil avval, ikkinchi marta esa Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatiga endi kirishgan paytlari kelganini alohida ta’kidlab, qisqa davr ichida amalga oshirilgan ishlarni yuqori baholadi. O‘zbekiston o‘z fuqarolarining huquqlarini himoya qilish va ularning manfaatlarini ta’minlash kabi qat’iy rivojlanish yo‘lidan sobitqadamlik bilan borayotganini alohida ta’kidladi.

Umuman, qiynoqlarga qarshi kurash O‘zbekistonda inson huquqlarini ta’minlash borasida olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonning inson huquqlarini ta’minlash bo‘yicha ilg‘or tajribasi bor, deb qat’iy aytish mumkin. Mamlakatdagi huquqiy islohotlar, jamoatchilik nazorati va xalqaro majburiyatlarni bajarishga bo‘lgan sadoqat inson qadrini himoya qilishdagi muhim qadamlardir. Bu xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda.

Muhimi, xalqimiz ushbu o‘zgarishlar ta’sirini o‘z hayotida his qilmoqda. Ishonamizki, kelgusida ham ushbu sa’y-harakatlar davom ettirilib, inson qadri tobora yuksalib boraveradi.

Feruza ESHMATOVA,
Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman).

O‘zbekiston hunarmandlari va san’atkorlari Hindistonda o‘tkazilgan xalqaro festivalda ishtirok etdi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 2-noyabr

O‘ZBEK SHAXMATI RIVOJLANISHNING YANGI BOSQICHIGA QADAM QO‘YMOQDA

Shaxmat, shubhasiz, inson tafakkuri yaratgan eng buyuk mo‘jizalardan biri. Zero, unda odamlarni ezgulikka chorlaydigan uchta muhim jihat – sport, ilm va san’at mujassamlashgan. Shu bois ulug‘ allomalar “aql charxi”ni eng katta tarbiyachi, deya e’tirof etgan.

Darhaqiqat, shaxmat insondagi kurashuvchanlik, g‘alabaga bo‘lgan ishonch ruhini tarbiyalaydi, irodani sinash, matonatni toblash orqali to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Ushbu qadimiy sport turiga qiziqish hech qachon so‘nmasligining asl sababi ham ana shunda.

Qalbimizga faxr bag‘ishlaydigan tomoni shundaki, zaminimiz barcha zamonda shaxmat olamida yetakchi mavqega ega bo‘lib kelgan. Bunga tarixdan misollar ko‘p. Xususan, sohibqiron bobomiz Amir Temur davrida Samarqand shatranj musobaqalari tez-tez o‘tkaziladigan yirik markazga aylangan. Ta’bir joiz bo‘lsa, bugun shaxmat dunyosidagi o‘sha shuhratimiz yana qaytdi. O‘zbekiston qisqa fursatda jahon shaxmatining yetakchi mamlakatlaridan biriga aylandi. Davlatimiz rahbari tomonidan shaxmatni rivojlantirishga qaratilgan e’tibor, uning ommaviyligini oshirish uchun yaratib berilayotgan qulay shart-sharoitlar bunda hal qiluvchi omil bo‘ldi.

Sport

Odamlar orzusidagi tuzilma

Bugun o‘zbek shaxmati rivojining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Ushbu jarayonda O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi va uning tarkibidagi tuzilmalar tubdan isloh qilinyapti, ularning vakolatlari kengaytirilib, zimmasiga qo‘shimcha vazifalar yuklanyapti. Bundan ko‘zlangan maqsad yagona. U ham bo‘lsa, O‘zbekiston shaxmat federatsiyasini yurtimiz iste’dodlarining boshini qovushtiradigan, shaxmatchilarimiz orzu-niyatlari ro‘yobga chiqishiga yaqindan ko‘mak beradigan, qisqacha aytganda, odamlarning orzusidagi xalqchil va shaffof tuzilmaga aylantirishdir.

Hozirgi kunda sohada olib borilayotgan tizimli yangilanishlarni uch yo‘nalishda alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchisi, sohaga quyidan tajribali mutaxassislar jalb etilib, kadrlar tarkibi kuchaytirilyapti. Qolaversa, xorijdan malakali murabbiylar chaqirilib, terma jamoa a’zolari va umidli yosh shaxmatchilarga individual mas’ul qilib belgilash amaliyoti joriy etilmoqda. Shuningdek, yurtimizdagi yuqori tajribali murabbiylar salohiyatidan foydalanish chora-tadbirlari ko‘rilyapti. Qolaversa, taqdir taqozosi bilan xorijda ishlayotgan murabbiylar, xalqaro grossmeysterlarni Vatanga qaytarish choralari ko‘rilmoqda.

Ikkinchisi, shaxmatni hududlarda ham rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar muhayyo etilmoqda. Ochig‘i, ilgari Toshkentga kelmagan shaxmatchi rivojlanmagan, o‘smagan. Endilikda poytaxtdagi sharoitlar joylarda ham yaratiladi. Federatsiya hududiy bo‘limlarining faoliyati jonlantiriladi. Joylarda tuman, shahar, viloyat miqyosidagi musobaqalardan tashqari kamida ikkitadan xalqaro va respublika chempionatlari tashkil etiladi. Turnirlar festival shaklida yuqori reytingli shaxmatchilar bilan birga yosh shaxmatchilarni qamrab olgan holda shaxmat bayrami tarzida uyushtiriladi. Bu esa shaxmatning ommaviyligini ta’minlashda muhim qadam bo‘ladi.

Uchinchisi, Xalqaro shaxmat akademiyasiga oliy ta’lim o‘quv yurti maqomi berilib, chinakam ilmiy muassasaga aylantiriladi. Dastlab bu yerda yoshlarga bakalavr darajasi berilsa, keyinchalik magistratura hamda oliy ta’limdan keyingi bosqichlar yo‘lga qo‘yiladi. Shaxmat ilmini o‘rganish, ilmiy izlanishlar olib borish uchun keng yo‘l ochib beriladi.

Shaffoflik va ochiqlik siyosati samarasi

Soha fidoyilari yaxshi bilishadi, shu paytgacha shaxmat ravnaqi yo‘lida bunday keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmagan edi. Qisqa davrda sohani tubdan rivojlantirishga qaratilgan beshta muhim hujjat qabul qilingani bunga yorqin misoldir. Ularning izchil ijrosi ta’minlanayotgani, ayniqsa, shaxmat siyosatidagi shaffoflik tufayli ilgari ko‘pchilik uchun “ochilmagan qo‘riq” bo‘lgan mazkur soha ochiq tizimga aylandi.

Shu o‘rinda shaxmatchilar mahoratini oshirish uchun qulay platforma vujudga kelganini ham alohida ta’kidlash joiz. Sportchi musobaqalarda toblangani kabi shaxmatchi ham mahalliy va xorijiy turnirlarda charxlanadi, mahorati oshib boradi. Biroq oldinlari respublikamizda atigi bitta – o‘zbekistonlik birinchi xalqaro grossmeyster G. Agzamov xotirasiga bag‘ishlangan xalqaro turnir o‘tkizilardi, xolos.

Bugun-chi? Bunday nufuzli musobaqalar soni yil sayin oshib boryapti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun xalqaro shaxmat turniri, shaxmat bo‘yicha XVII jahon chempioni R. Qosimjonov xalqaro turniri, “Sohibqiron kubogi” xalqaro shaxmat turniri, “Al-Beruniy” xalqaro shaxmat turniri, “Turizm va shaxmat haftaligi”, viloyat hokimi kuboklari va boshqa ko‘plab masterlar, ochiq, aylanma hamda jamoaviy turnirlar shular jumlasidan.



Quvonarlisi, respublika va xalqaro turnirlarni o‘tkazishda xususiy sektor vakillari, tadbirkorlarimiz tashabbus ko‘rsatishmoqda. Aytaylik, shaxmat fidoyisi, taniqli investor Anvar Shukuruv “Karshi open” xalqaro turnirini qayta tiklab, uning nufuzini oshirish bo‘yicha yangi loyihalarni taqdim etdi. 2025-yilda mazkur yirik shaxmat anjumani Qashqadaryo viloyatida o‘tkazilsa, Surxondaryoda “Baqtriya kubogi” xalqaro turniri, Andijon, Jizzax va Buxoroda kamida 1200 shaxmatchini o‘zida jamlovchi o‘smirlar o‘rtasida hamda maktab o‘quvchilari o‘rtasida respublika chempionatlari tashkil etilishi ko‘zda tutilgan.

Umuman, har oyda kamida ikkitadan nufuzli shaxmat turnirini o‘tkazish maqsad qilingan. E’tiborlisi, ular markazda emas, aksincha, mamlakatimizning turli hududlarida bo‘lib o‘tadi. Bu esa joylarda kamolga yetayotgan yosh umidli yulduzlarni kashf etish imkonini beradi, albatta.

Ikkinchi bor shohsupada

Jahon shaxmatining buguni va istiqboli haqida gap ketganda, O‘zbekiston nomi Hindiston, AQSH, Xitoy singari yetakchilar qatorida tilga olinadi. Shaxmatchilarimiz bilim, tafakkur va mahorat bobida yuksak mavqega ega ekani e’tirof etiladi. Chunki milliy jamoamiz Shaxmat olimpiadasida ketma-ket ikkinchi marta oliy shohsupaga ko‘tarildi. Bu shaxmat tarixida kamdan-kam kuzatiladigan noyob holat ekanini ko‘pchilik yaxshi tushunadi.

> ***46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi yurtimizda o`tkazilishi iste’dodli shaxmatchilarimizning yangi avlodini tayyorlash va jahon shaxmat maydoniga olib chiqish uchun qulay fursatdir. Chunki bizga mezbon davlat sifatida uchtadan erkaklar va ayollar jamoalari ishtirok etishiga ruxsat beriladi. Eng asosiysi, yurtimizda bunday yirik turnirlarda o`zini ko`rsata oladigan shaxmatchilarimiz juda ko`p.***

Haqiqatan ham, 2022-yili 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida erkaklar jamoasi 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan edi. Mana, yaqinda Vengriyaning Budapesht shahrida bo‘lib o‘tgan 45-Butunjahon shaxmat olimpiadasida O‘zbekiston 200 ga yaqin davlatlar orasida faxrli uchinchi o‘rinni egalladi. Ayollar jamoasi bo‘lsa, o‘z tarixidagi eng yuqori natijani qayd etib, 12-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Shaxmatchilarimiz so‘nggi yillarda erishgan muvaffaqiyatlar haqida gap ketganda, jamoaviy jahon chempionatida 2-o‘rinni egallaganini, Afro‘za Hamdamova 14 yoshgacha qizlar o‘rtasida jahon chempioni bo‘lganini, reyting bo‘yicha jahonning birinchi va ikkinchi raqamli shaxmatchilari Magnus Karlsen hamda Xikaru Nakamura qatnashgan “Qatar Masters Open”da birinchi o‘rin taqdirini bizning yigitlar – Nodirbek Abdusattorov va Nodirbek qubboyev o‘zaro hal qilib, qubboyev g‘olib bo‘lganini alohida ta’kidlashni istardim. Bundan tashqari, 2023-yilda “Prague Masters” hamda Tep-Sijmen superturnirlarida Nodirbek Abdusattorov 1-o‘rinni egalladi. Shamsiddin Vohidov esa Osiyo chempioni bo‘ldi.

Jahonning eng yosh grossmeysterlari ro‘yxatining tepasida o‘zbekistonlik ikki nomdor shaxmatchi – Javohir Sindorov va Nodirbek Abdusattorovning borligi bejiz emas.

Shaxmat ekspertlari ayni paytda dunyoning eng kuchli shaxmatchilari O‘zbekistonda shakllanganini e’tirof etmoqda. Ayniqsa, erkaklar terma jamoamiz dunyodagi yetakchi tarkiblardan biri sanaladi. Ular oxirgi olimpiadada qo‘lga kiritgan bronza medali oltinga tenglashtirilyapti. Negaki, medallar uchun jami 10 ta jamoa kurash olib borgan bo‘lsa, olimpiada g‘olibi bo‘lgan Hindiston jamoasi birgina O‘zbekiston bilan durang o‘ynadi. Yakunda O‘zbekiston 8 g‘alaba, 1 durang va 2 mag‘lubiyatni qayd etdi. Shu tariqa Xitoyni shohsupadan chetlatib, AQSHdan keyingi o‘rinni band qildi.

Tarixiy topilmalar siri

O‘zbek shaxmati shuhratining ortib borayotgani tasodif emas. Bu tarixiy adolat qaror topayotgani, oqqan daryo oqmay qolmasligidan nishona.

Garchi, shaxmat tarixida bu o‘yin Hindistonda bundan bir yarim ming yil avval paydo bo‘lgan va insoniyat tamaddunining ajralmas qismi sifatida dunyo bo‘ylab keng tarqalgani aytilsa-da, “aql gimnastikasi”ning shakllanishi va rivojlanishida O‘zbekiston zamini muhim rol o‘ynagani ayni haqiqat. Bunday deyish uchun ilmiy asoslar ham yetarli.

Gap shundaki, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti professori, arxeolog Yuriy Buryakov 1990-yili Samarqand yaqinidagi shaharning qadimiy qismi Afrosiyobda olib borgan qazishma davomida fil suyagidan yasalgan 7 dona shaxmat haykalini topgan. Bu shu davrgacha dunyo miqyosida eng to‘liq to‘plamdagi topilma hisoblanadi.

1996-yilda yaponiyalik arxeologlar mamlakatimiz janubidagi qadimiy Dalvarzintepa hududida Kushon imperiyasi davriga oid ikkita noyob shaxmat haykalchasini topishga muvaffaq bo‘lgan. Bu miloddan avvalgi II asrda qadimiy O‘zbekistonda shaxmat o‘yini bo‘lganini anglatadi.

Yurtimiz janubidagi ushbu tarixiy topilma shaxmat o‘yini tarixiga bo‘lgan qarashni o‘zgartirib yubordi. O‘zbekistonda shaxmat haykalchalari hunarmandlar yashagan uylar, hammomlar xarobalarida olib borilgan qazishmalardan topilgani shaxmat keng aholi qatlami orasida ham mashhur bo‘lganini yaqqol tasdiqlaydi.

Shaxmatning O‘zbekistonda paydo bo‘lganini isbotlovchi misollardan yana biri uning nomlanishidir. Hindistonda II asrdan XVI asrgacha shoh va podshohlar bo‘lmagan. Buyuk Boburiylar sulolasiga qadar Hindistonda rajlar hukmdor sanalgan. Shu bois shaxmat nomining kelib chiqishi hind tiliga taalluqli bo‘lishi biroz shubhali. So‘zning ikkinchi bo‘g‘ini bo‘lmish “mot” so‘zi ham o‘zbek tilida “chorasiz holat” degan ma’noni anglatadi.

Arxeolog Yuriy Buryakov Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkentda shaxmat o‘yini keng tarqalganini, bu Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab tuyalar karvoni yurgan yo‘nalishlarga to‘g‘ri kelishini qayd etgan. U shaxmat o‘yinining mumtoz tarixini o‘rganar ekan, ushbu sport turini buddizm rohiblari emas, qadimgi Samarqand shahrining savdogarlari yoygan, deb hisoblaydi.

O‘zbek xalqining qadimiy shaxmat an’analariga ko‘ra, hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ushbu sport turiga tobora keng jalb qilinmoqda. Bu yangi O‘zbekistonda yangi shaxmat yulduzlarini kashf etishning eng to‘g‘ri yo‘lidir. Binobarin, navqiron avlod orasidan istiqbolli sportchilar tezda saralanib, ular o‘z yosh toifasi bo‘yicha jahon chempionlariga aylanishmoqda.

Musobaqaning ommaviyligi oshmoqda

Bugungi kunda shaxmat musobaqalarda o‘ynaladigan sport turigina emas, balki o‘zbek xalqi sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismi, doimiy shug‘ullanadigan mashg‘ulotiga aylandi, desak, mubolag‘a emas.

Ha, shaxmat milliy harakat tusini olayotgani kishini quvontiradi. Bunda Prezidentimizning 2018-yil 9-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori katta turtki bo‘ldi. Ushbu hujjatga asosan, dastlab 150 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabi shaxmatga ixtisoslashtirilgan bo‘lsa, yana shuncha maktabning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ushbu sport turiga o‘qitish boshlandi. shlarni ma’naviy va jismoniy barkamol avlod qilib shakllantirish, intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan bu loyiha tezda o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatdi.

O‘rganishlarga qaraganda, shaxmatning sir-asrorlari o‘rgatilayotgan sinf o‘quvchilarida darslarni o‘zlashtirishda ham ijobiy natijalar kuzatilib, turli tanlovlarda g‘oliblikka erisha boshlagan. Axir shaxmat kishida fikrlash jarayonini tartibga soladi, diqqatni jamlash ko‘nikmasini hosil qiladi, xotirani mustahkamlaydi. Ayniqsa, mantiqiy fikrlash va irodani toblashda uning ahamiyati katta. Bu sport turining ana shu jihatlari inobatga olingan holda, ayni paytda yurtimiz bo‘yicha 1300 ta maktabda o‘quvchilarga shaxmat fan sifatida o‘qitilayotgani diqqatga sazovor.

Shaxmatni ommalashtirish borasidagi sa’y-harakatlarning hozirgi bosqichida “Shaxmat bog‘chadan boshlanadi” maxsus dasturi hayotga tatbiq qilinyapti. Bu maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini shaxmatga qiziqtirish va o‘rgatish, ular orasidan iste’dodli yosh shaxmatchilarni saralab olish, boshqacha aytganda, shaxmatda “seleksiya” ishlarini yaxshilash imkonini beradi.

Shu maqsadda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida “Shaxmat festivali”, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida alohida-alohida musobaqalar o‘tkazilayotgani umidli va istiqbolli shaxmatchilarni kashf etishga keng yo‘l ochmoqda. Bu shaxmatsevar xalqimiz uchun juda katta imkoniyat. Yashirib nima qildik, ilgari ota-onalar farzandlarini qo‘lidan yetaklab, unga yaxshi murabbiy izlab yurardi. Bugun shaxmatni o‘qitish tizimli ravishda yo‘lga qo‘yildi.

Olimpiada mezboni – Samarqand

Hozir asosiy e’tibor 2026-yilda Samarqand shahri mezbonlik qiladigan navbatdagi olimpiadani yuqori saviyada tashkil etish, shu bilan birga, shaxmatdagi natijalarni yanada yaxshilashga puxta tayyorgarlik ko‘rishga qaratilgan. Bunda davlatimiz rahbarining “2026-yil O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko‘rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori dasturilamal bo‘lib xizmat qilyapti.

Olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rish doirasida joriy yil mamlakatimiz yirik shaxmat bayrami – “UzChess Cup” xalqaro shaxmat musobaqasiga mezbonlik qildi. Umumiy mukofot jamg‘armasi 166 ming AQSH dollariga teng bo‘lgan ushbu musobaqa ilk bor jahonning ekstroklassdagi 10 nafar yetakchi shaxmatchisi o‘rtasida o‘tkazildi. Bu esa shaxmat sportini yanada kengroq targ‘ib qilish, yoshlarni sport musobaqalariga ommaviy ravishda jalb etish, o‘zbekistonlik shaxmatchilarning bilim va tajribalarini yanada rivojlantirish, havaskorlar hamda yosh shaxmatchilarning malakalarini oshirishga hissa qo‘shdi.

46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi yurtimizda o‘tkazilishi iste’dodli shaxmatchilarimizning yangi avlodini tayyorlash va jahon shaxmat maydoniga olib chiqish uchun qulay fursatdir. Chunki bizga mezbon davlat sifatida uchtadan erkaklar va ayollar jamoalari ishtirok etishiga ruxsat beriladi. Eng asosiysi, yurtimizda bunday yirik turnirlarda o‘zini ko‘rsata oladigan shaxmatchilarimiz juda ko‘p.

Yaqinda yurtimizga tashrif buyurib, olimpiadaga tayyorgarlik jarayonlarini ko‘zdan kechirgan FIDE prezidenti A. Dvorkovich boshchiligidagi ekspertlar jamoasi Shaxmat olimpiadasiga ko‘rilayotgan hozirlik ishlaridan katta qoniqish bilan qaytib ketdi.

O‘zbekiston Shaxmat federatsiyasi va uning tizimidagi tuzilmalar tomonidan sportchilarimizga yuksak ilmiy salohiyatini namoyish etishlari uchun barcha zarur shart-sharoitni muhayyo qilish yo‘lida bor imkoniyatlar ishga solinmoqda. Umid qilamizki, bugungi sa’y-harakatlar o‘zbek shaxmati tarixida yangi sahifalar ochib, mamlakatimizning yuksak mavqeini yanada ko‘tarishga, jahon shaxmat tojini yana O‘zbekistonga olib kelish orzuimiz ro‘yobiga mustahkam poydevor bo‘ladi.

Komil SINDOROV,
O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi raisi o‘rinbosari, Xalqaro shaxmat akademiyasi direktori.

YANGILIKLAR *xabarlar*

TAFSILOTLAR

“Nasaf” – O‘zbekiston chempioni

O‘zbekiston Superligasining 23-turi doirasida Qarshining “Nasaf” jamoasi safarda Toshkentning “Lokomotiv” jamoasini 0:1 hisobida mag‘lub etib, o‘z tarixida ilk bor O‘zbekiston chempioniga aylandi.



“Nasaf” 23 o‘yindan keyin 52 ochko jamg‘arib, chempionat yakuniga 3 tur qolganda muddatidan avval O‘zbekiston chempionligini naqd qildi.

– Biz chempionlikni uzoq yillar maqsad qilgandik va har bir bahsga jiddiy qaradik, – deydi jamoa bosh murabbiyi Ro‘ziqul Berdiyev. – Bugun shogirdlarimga rahmat aytaman. Ular muxlislarimizning azaliy orzusini ro‘yobga chiqarishdi. Yaqin kunlarda xalqaro maydonda ham o‘yinlarimiz bor. Unda ham yuqori natijalarni qayd etib, xalqimizni xursand qilamiz, albatta.

Jamoa bugungacha OFK kubogi chempioni, O‘zbekiston kubogi sohibi, O‘zbekiston superkubogi g‘olibi bo‘lgan hamda mamlakat chempionatida 4-marta kumush, 7-marta bronza medallarini qo‘lga kiritgan.

Bu gal R. Berdiyev shogirdlari o‘z tarixida ilk bor Superliga g‘olibligini qo‘lga kiritish bilan birga poytaxt klublarining 23 yillik chempionligiga ham barham berdi. Natijada 2025-yilda O‘zbekistonning birinchi raqamli jamoasi sifatida OFK Elit Chempionlar ligasida mamlakatimiz sharafini himoya qiladigan bo‘ldi.

Elyor HAYDAROV
(“Xalq so‘zi”).

Milliy qadriyatlarimiz tarannumi

Poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida milliy qadriyatlarimizga bag‘ishlangan madaniy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi. Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan tashkil etilgan ushbu tadbirda akademiya o‘qituvchi va talabalari, mehmonlar qatnashdi.

Qayd etilganidek, yurtimizda milliy qadriyatlarimiz rivojiga alohida e’tibor berilyapti, bu o‘zligimizni anglash, ko‘nglimizda Vatanga, ona yurtga nisbatan mehr-muhabbatimiz yanada oshishiga xizmat qiladi.

Madaniy kechada taniqli shoirlarning Vatanni madh etuvchi she’rlari, xonandalarning dilrabo kuy-qo‘shiqlari yangradi.

Tadbir so‘ngida akademiya talabalaridan iborat “Navo-shifo” ansambli ijrosidagi yoshlikka xos kuy-qo‘shiqlar, jozibali raqslar, she’riy monologlar, milliy kiyimlar hamda taomlar ko‘rgazmasi ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

“Jasorat” muzeyi ochildi

Namangan viloyati IIBda “Jasorat» muzeyi o‘z faoliyatini boshladi.



Bu yerda viloyat ichki ishlar organlarining tashkil etilishidan bugungi kunga qadar bo‘lgan faoliyati yoritilgan bo‘lib, ular haqidagi ma’lumotlar zamon talablariga mos ravishda raqamli texnologiyalar asosida uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz) audioyozuv orqali taqdim qilinadi.

Muzeyda alohida zamonaviy va qulay “Videozal” joylashgan bo‘lib, unda tashrif buyuruvchilar viloyat IIB va uning quyi tizimlarining tarixi, hozirgi kundagi faoliyatiga daxldor videolavhalar hamda hujjatli ko‘rsatuvlar bilan tanishish imkoniga ega.

“Jasorat” muzeyining tantanali ochilish marosimida qayd etilganidek, ushbu maskan viloyat ichki ishlar tizimining shonli tarixi va faoliyatini yosh avlodga yetkazishda muhim o‘rin tutadi.

“Xalq so‘zi”.

A. I. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent shahridagi filialining yangi kampusi ochildi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1142. 11 728 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 23.32 Topshirildi — 02.20 1 2 3 4 5 6